



«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» AJ NING YO'LOVCHI TASHISH XIZMATINI INDEKATSION BAHOLASH

G'ayrat Rakhmonov

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent
axborot texnologiyalari universiteti*

Annotatsiya: mazkur maqolada «O'zbekiston temir yo'llari» AJ ning yo'lovchi tashish xizmatini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini bosh muammoviy holatlari va e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlarining tahliliy asoslari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar diversifikatsiyasi, yo'lovchi tashishi xizmatini takomillashtirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish.

Yo'lovchilar uchun manzilga yetishga mo'ljallangan xizmatlardan foydalanish ahamiyati o'ta muhim bo'lib, bunda biznes etikasi, ergonomika, marketing hamda individual menejment singari asosiy funksional yondoshuvlarga tayanadi. Masalan, xizmatlar qanchalik hashamatli va sifatli bo'lmasin, yo'lovchiga qilingan nomunosib munosabat salbiy taasurot hamda keskin printsiplial ziddiyatga sabab bo'ladi, boznes etikasiga amal qilish orqali esa hashamat va sifatga bo'lgan mijozning istaklarini yumshatish yoki qondirish imkoniyati yuzaga keladi. Bunda esa ilmiy-tahliliy yondoshuvlarning inobatga olinishi natijasida yo'lovchilarda xizmat ko'rsatish sifatini ko'p bosqichli kompleks baholash tarkibi va mezonlarini baholash orqali aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi (1-2 jadvallar).

Iste'molchi tanlovi nazariyasiga ko'ra transport vositalaridan foydalanishda tayyoralar birinchi o'rinda bo'lsa, ikkinchi o'rinda suv transporti hamda keyingi o'rinda temir yo'l transporti turadi.³² Yuqorida keltirilgan kuzatuv mulohazalarini majvud holatini aniqlashda tahliliy asoga ko'ra natijaviyligi yo'l kira uchun xarajat, poyezd yo'lovchilarining poyezddagi qulayliklar uchun qilgan xarajat, yo'lovchilarni tashishdagi qulayliklarni takomillashtirish xarajatlari tegishli savollarga javob olish imkonini yaratib beradi.

1-jadval. «O'zbekiston temir yo'llari» AJ xizmatidan foydalanishning yo'l kira uchun xarajatlari, 2019-2023 yy³³

Yillar	Yo'l kira uchun xarajatning iqtisodiy salohiyati	Poyezdda yo'lovchini tashishga qilingan umumiy (amortizatsion, texnik) xarajat;	Poyezd yo'lovchilarining poyezddagi qulayliklar uchun qilgan xarajatlari	Yo'lovchilarni tashish uchun temir yo'l kompaniyasi tomonidan qilingan operatsion xarajatlar
O'lchov	foizda	mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm

³² Oecd.com (transport value)

³³ Muallif hisob-kitobiga ko'ra shakllantirildi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



birligi				
2019	0,0237929	2,741	0,32892	0,03279
2020	2,5471	0,025471	0,01	2,5471
2021	0,032373295	3,247	0,0048705	0,0048
2022	0,0172975	2,325	0,43225	0,293
2023	0,014372	2,72	0,3808	0,902

Mazkur tahlil natijalari «O‘zbekiston temir yo‘llari» AJning «Afrosiyob» poyezdi misolida olingan bo‘lib, 2019-yilda yo‘l kira uchun xarajatning iqtisodiy salohiyati 0,02 foizni tashkil etadi, bunda esa asosiy holat me‘yor darajasidan ancha yuqori darajaga egaligi evaziga salmoqli o‘ringa ega. Shuningdek, mazkur natijaviylik 2019-yilda O‘zbekistonning iqtisodiy strategik rivojlantirish sharoitidan o‘tgan bosqichi sanalib, yo‘l kiralarning umumqabul darajasidan foydalanish yuqori bo‘lgan. Mamlakat aholisining har 14-chi fuqaro foydalanganligiga to‘g‘ri keladi. 2020-yilda mazkur ko‘rsatkich har 13-chi fuqaro tomonidan temir yo‘l xizmati foydalanuvchi bo‘lganligini nazarda tutsa, ushbu davrda hukmron bo‘lgan Covid-19ning ta‘siri natijasida 2019-yilga nisbatan operatsion xarajalari nisbati yuqoriligi ulushi oshgan.

2021-yilda yo‘l kira uchun xarajatning iqtisodiy salohiyat yuzasidan Covid-19 sharoitida o‘rnatilgan karantindan charchagan aholi keskin to‘y va hashamlarni amalga oshirishga intilishi natijasida, shuningdek xalqning karantindan chiqib mamlakat aholisini o‘zaro yaqinlarini ziyorat qilishga intilishi yuqori bo‘lgani hisobiga 0,03 foizni tashkil etgan bo‘lsa, aholining har 10 tadan bir nafari temir yo‘l xizmatidan foydalaniganligini anglatadi. Umumiy holda yo‘l kiraning aholining barcha qatlami uchun karmonbop bo‘la olgan.

2022-yilda 2020-yilga nisbatan foiz ko‘rsatkichi salkam 2 barobarga kamaygan bo‘lib, 0,017 foizni tashkil etgan. Bunda esa asosan yo‘lovchini tashishga qilingan amortizatsion va texnik xarajatlarning umumiy qiymati nisbatan past bo‘lgani hamda qulayliklar uchun qilingan xarajatlarning nisbatan yuqori bo‘lgani evaziga qayd etilgan. Bu o‘z navbatida har 19-chi fuqaroning temir yo‘l xizmatidan foydalanishga qadar tushib ketganligini sabab sifatida e‘tirof etish mumkin.

2023-yilda yo‘l kira uchun qilingan xarajatning iqtisodiy salohiyati 0,14 foizga qadar kamayib, bu holatning asosiy sababi 2023-yilda yo‘lovchilarni tashish uchun korxona tomonidan qilingan operatsion xarajatlarning yuqori bo‘lgani bilan izohlanadi. Bunday holat kelgusida temir yo‘l transporti xizmatida yo‘lovchilarni tashish yuzasidan mijozlarni boy berishga yetaklash ehtimoli o‘ta yuqori bo‘lib, uni bartaraf etish maqsadida chiptalarga naxr qo‘yish siyosatini motivatsion hamda iqtisodiy jihatdan diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi.

Poyezd yo‘lovchilarining poyezddagi qulayliklar uchun qilgan xarajati deganda asosan qulaylik yaratish tushunilsada, har qanday korxonaning barqaror o‘sishiga qiziqish bildirgan boshqaruvchi tomonidan korxona qadriyatlarida kompleks yondoshuv asosida zararsiz xizmat, madaniy hordiq taqdim eta oladigan hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



jihatlarini ham inobatga oladilar. Jumladan, zararsiz xizmat tarkibida shovqin, tebranish hamda toza havo bilan bog'liq asosiy muammolarni bartaraf etishga qaratiladi, ya'ni shovqin har qanday mashinaning ajralmas elementi bo'lgani bois poyezdlar shovqinni kamaytiradigan bir qator funksiyalar bilan jihozlanadi.

2-jadval. Poyezd yo'lovchilarining poyezddagi qulayliklar uchun qilgan xarajati³⁴

2023 y	Toshkent Samarqand	Tosh kent- Qarshi	Tosh kent- Buxoro	O'rtacha	2019- 2022y o'rtacha
Yo'lovchining manziliga yetish mobaynida poyezdning to'xtash soni	2	3	4	3	3
To'xtashlar sonida poyezdga chiqqan yo'lovchilarning soni	74272	59118	82128	71839,3	177571,1
Poyezdlarning yo'nalishda harakatlanishi davomida vaqt oralig'i (soat)	2	3	4	3	3
Har bir yo'lovchining sarflagan vaqt qiymati (chipta narxi, so'm)	55144	62721	72830	63565	66372
Poyezdning o'rtacha tezligi (km/soat)	250	250	255	251,67	378,3
Har bir yo'lovchiga to'g'ri keladigan masofa (km/soat)	297,09	236,472	322,07	285,21	281,25
Natija	546117170	741629349	1595099491	913338576	2357149957
mln.so'mda	546,117	741,629	159,509	913,339	2357,15

Yuqoridagi jadvalga ko'ra 2023-yilda Toshkent-Samarqand yo'nalishi bo'yicha to'xtashlar soni 2 ta bo'lib, uning Buxoroga qadar soni oshib boradi, eng ko'p yo'lovchilar Buxoro hamda Samarqandga yo'l olib, undagi temir yo'l transporti xizmatining samaradorligini oshirishga nisbatan bo'lgan talabni yanada oshirish zaruratini anglatadi. Buxoroga qadar poyezd yetib borgunga qadar 4 marta to'xtashi davomida to'xtash davomiyligi jami 45 daqiqani tashkil etadi. Biroq uning oralig'ida poyezdlar to'xtash yo'laklarida transport xizmatiga taaluqli bo'lmasada, uning hududida ko'rsatilayotgan xizmatlarga ham yo'lovchilarning munosabati shakllanishi natijasida, ba'zi to'xtash bekatlaridagi ximzatlar va uning sifatiga alohida e'tibor berish lozimdir. Bu avvalambor oziq-ovqat hamda esdalik mahsulotlari bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida har bir bekatda chegaralangan darajada mahsulotlarning mavjudligi temir yo'lning ichida mavjud bo'lmagan do'kon hamda iste'mol mollari olishga nisbatan qoniqmaslik hissi iste'molchi tanlovini salbiy bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, shuni alohida e'tirof etish joizki, barcha rivojlangan mamlakatlarning temir yo'l transporti xizmatida

³⁴ Muallif hisob-kitoblariga ko'ra shakllantirildi



to'xtash bekatlarinida yo'lovchi uchun tinglash quloqchinlari va kitoblar berilishi, shuningdek, sovuq bo'lishi ehtimolida qalin yopinchiq odiyollari, bo'yin og'rig'iga qarshi maxsus yostiqlar hamda havo yetishmasligi holatida maxsus havo qopchalari beriladi. Biroq, mamalaktimizdagi temir yo'l transporti xizmatida bu kabi xizmat ko'rsatish turlari mavjud emas.

Ba'zi temir yo'l stantsiyalarida tegishli hududning tarixi bilan bog'liq lavhalar va uning asosida muzeylar bor bo'lib, ularning aksariyati chiqindi mahsulotlardan hamda agromahsulotlardan qilingan qadriyatlarni aks ettiruvchi yarmarka kabi tashkil etilgan, jumladan, Avstraliyada, Xitoyda hamda Polshada. Bu to'xtash bekatlaridagi vaqtning mazmunli o'tishini hamda esdalik sovg'arini xarid qilis imkonini beradi. Biroq ko'plab rivojlangan mamlakatlarning temir yo'l bekatlarida asosiy e'tiborni oziq-ovqat va uning sifatiga e'tiroq etgan holda yetkazib berish xizmatini poyezdning reysiga qarab mo'ljallni olishga, poyezdning ichki tarkibida ovqatlanish hududini estetik jihatini oshirishga, shuningdek, bolalarning mazmunli vaqt o'tkazishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

To'xtashlar sonida poyezdga chiqqan yo'lovchilarni sonini sarhisobini olib borish temir yo'l transportida ko'rsatiladigan xizmatlarning yangilanishi hamda tezkor munosabat bildirilishi uchun muhim sanaladi, bu shuningdek xizmatning nechog'lik sifatli olib borilishi hamda uning xalqaro darajada munosib holatda olib borilishini ta'minlashga qaratilgan xizmat infratuzilmasining mexanizmini ifodalaydi. Toshkentdan Samarqandga qadar yo'lovchilarning soni salkam 75 mingga yetgan bo'lib, uning turistik salohiyati, shuningdek mazkur hududdan Navoiyga qarab yo'l oluvchi yo'lovchilarni ham qamrab olganini inobatga olgan holda pandemiya davrida ham temir yo'l transporti faoliyat yuritgan davrda katta hajmni tashkil etgan. Toshkent-Qarshi yo'nalishida yo'lovchilar Toshkent-Samarqanddan keyingi yo'lni ham tashkil etishini inobatga olgan holda jami 133390 yo'lovchini o'z ichiga olgan bo'lib, bu O'zbekiston aholisining 0,41 foiziga to'g'ri keladi. Toshkent-Buxoro yo'nalishida jami yo'lovchilarni sarhisobi boshqa yo'nalishlardagi yo'lovchilarga qaraganda eng katta qamrovni egallagan bo'lib, mazkur manzilga yetgunga qadar Samarqand orqali ham o'tishi belgilangan, qolaversa ushbu hudud turistik zona hamda Surxondaryo, Xorazm viloyatlarining ba'zi qismlariga yetib olish uchun qulayliklari tufayli yo'lovchilari ko'p bo'lgan. Toshkentdan-Samarqand-Qarshi-Buxoro yo'nalishlarining barchasida jami 215518 ta yo'lovchilar sayohat qilgan bo'lib, bu O'zbekiston aholisining 0,66 foizini tashkil etishiga to'g'ri keladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra temir yo'l transportida ko'rsatiladigan xizmatlarning samaradorligini baholash tahlillari asosan xizmatlar diversifikatsiyasi hamda segmentatsiyasi amalga oshirilishini, shuningdek, u orqali qo'shimcha qiymat yaratishga qaratilgan mexanizm to'laqonli ishlab chiqilmaganligi bois uni ishlab chiqish hamda faollashtirish zarurati yuzaga keladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Raxmonov, G. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamlakatlarining tajribasi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, Vol. 1 No. 4 (2024), -2024. -B1430-1434.
2. Raxmonov, G. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish jarayonini rivojlantirishning retseptiv tahlili. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, Vol. 1 No. 4 (2024), -2024. -B1444-1449.
3. Raxmonov, G. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning zamonaviy yechimlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, Vol. 1 No. 5 (2024), -2024. -B 557-563.
4. Rahmonov G. TEMIR YO'L TRANSPORTIDA XIZMAT KO'RSATISH FAOLIYATINI BAHOLASH TAVSIFI // Экономика и социум. 2024. №6-2 (121).). – С. 555-563
5. Rahmonov G. "O'zbekiston temir yo'llari" AJning tashkiliy iqtisodiy faoliyati holati // Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 554-559.
6. Rahmonov G. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish faoliyatini baholash usullari va bosqichlari // Экономика и социум. – 2024. – №. 6-2 (121). – С. 545-553.
7. Rahmonov G'.I. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishda xorij mamalatlarining tajribasi va qo'llash darajasi. Экономика и социум. 2024. – №. 6-2 (121). – С. 541-545.
8. Rahmonov G'.I. "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan ko'rsatiladigan xizmat faoliyati va uning samaradorligini baholash. "Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar" ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya. Vol. 18 (2024), 08.08.2024 y, 3-6 b
9. Rahmonov G'.I. Temir yo'l transportida xizmat ko'rsatish samaradorligini baholashning ilmiy-nazariy asoslari. "WORLDLY KNOWLEDGE " ilmiy tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash markazi tomonidan "Ilm-fan yangiliklari" mavzusidagi №1-sonli ko'p tarmoqli, ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiyasini Vol. 4 No. 1 (2024). 08.06.2024, 3-6 b